

**ALISHER NAVOIY G‘AZALLARI VA G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI****Karimjonova Nigoraxon Sanjar qizi**

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti

filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20051381>**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning adabiy merosi, uning o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni badiiy va falsafiy qarashlari keng yoritilgan. Navoiy ijodining asosiy yo‘nalishlari, xususan g‘azalchilik, dostonchilik, nasriy asarlar hamda uning insonparvarlik, axloqiy -ma‘rifiy g‘oyalari tahlil qilinadi. Maqola Navoiy ijodining bugungi kun uchun ham dolzarbligini ko‘rsatishga qaratilgan. Maqolada Navoiy o‘zini “mahjur” – yoridan judo va iztirobda bo‘lgan oshiq sifatida tasvirlab, o‘z shaxsiy dardini umuminsoniy fojia darajasiga ko‘targani ko‘rsatib beriladi. Shoirning shaxsiy kechinmalari o‘zini oqlash emas, balki boshqalarga bunday iztirob yetmasligini so‘rash shaklida ifodalanadi, bu esa uning insonparvarlik ruhidan dalolat beradi.

**Annotation:**

This article broadly explores the literary heritage of the great thinker and poet Alisher Navoi, his role in the development of Uzbek classical literature, and his artistic and philosophical views. The main directions of Navoi’s творчество (creative work), particularly his ghazals, epics, and prose writings, as well as his humanistic, moral, and educational ideas, are analyzed. The article aims to demonstrate the relevance of Navoi’s творчество even in the present day. The article also shows how Navoi portrays himself as a “mahjur” — a lover separated from his beloved and suffering in distress — elevating his personal pain to the level of a universal human tragedy. The poet expresses his inner experiences not as self-justification, but as a plea that others may not suffer such anguish, which reflects his deep humanism.

**Kalit so‘zlar:**

Alisher Navoiy, mumtoz adabiyot, g‘azal, doston, yor, “Xazoyin ul-hmaoniy”, insonparvarlik, ma‘naviyat.

**Keywords:**

Alisher Navoi, classical literature, ghazal, epic, beloved, Khazoyin ul-maoniy, humanism, spirituality.

Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, buyuk shoir mutafakkir davlat arbobi. U ijodi orqali nafaqat turkiy tilining adabiy imkoniyatlarini yuksak darajada namoyon etdi, balki butun turkiy xalqlar adabiy tafakkurining eng yuksak cho‘qqilaridan birini yaratdi. Navoiy ijodi inson ma‘naviy kamoloti, adolat ezgulik va ilm ma‘rifat g‘oyalari bilan sug‘orilgani bilan alohida ahamiyatga ega. Alisher Navoiy eng avvalo buyuk shoir sifatida tanilgan. Uning she‘riy merosi to‘rt devondan iborat bo‘lib, ular “Xazoyin ul-maoniy” nomi bilan mashhur. Asarda kirish qismida unda shoir bu kitobning yaratilishi, unda she‘rlarni joylashtirish tartibi, o‘zining she‘r tuzilishiga oid fikr va mulohazalari to‘g‘risida so‘zlaydi. Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” devonining birinchi kitobi “G‘aroyib us -sig‘ar ” deb ataladi. Uning ma‘nosi “Bolalik g‘aroyibotlari” bo‘ladi. Unda Navoiyning o‘spirinlik yillari yozgan she‘rlari jamlangan. Bu kitobning boshlanish bo‘lagida “Xazoyin ul- maoniy ” kitobi uchun yozilgan so‘z boshi bor. Unda Navoiyning yetti-sakkiz yoshdan to yigirma yoshgacha bo‘lgan davrni umr fasllarining navbahori va hayot gulshaning g‘uncha ochishi va gulzori deb

ataydi. Shu tufayli bu devonga “G’aroyib us-sig’ar” – “Bolalik g’aroyibotlari ” deb nom qo’ygan. Yigirma o’ttiz beshgacha bo’lgan davr yigitlik yillaridir . Bu paytlarda yozilgan she’rlar “Navodir ush-shabob” (Yoshlik nodirliklari) devonida jamlangan. O’ttiz qirq beshgacha bo’lgan vaqtlari fasllarning xazoni debdi. “Badoye ul-vaqsat” (O’rta yosh go’zalliklari ) devonida yig’ilgan. Qirq beshdan oltmish yoshgacha bo’lgan fursat odamning keksalik chog’ida to’g’ri keladi. U umr fasllarining qishi. Bu yillardagi she’rlar “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) deb nomlangan devonni tashkil etadi. O’zining qanday ijodiy ish bilan mashhur bo’lgani to’g’risida Navoiy deydi:

Kun bor ediki, bir g’azalu ikki g’azal ,  
Bal uch g’azalu to’rt g’azal ba’zi mahal  
“G’aroyib us- sig’ar” devoni Navoiyning mashhur  
Ashraquat min aksi shamsil ka’si anvarul hido  
Yor aksin mayda ko’r deb jomdin chiqdi sado

Bayti matl’a bo’lgan g’azali bilan boshlanadi .Ma’nosi: Kimning jomida (qalbida ) ilohiy ma’rifat mayi bo’lsa unda yor (Alloh) jamoli aks etadi. Bu g’azal faqat yoshlik devoni uchun emas, balki butun “Xazoyin ul-maoniy” uchun muqaddimadir. Ana shu devonda yana Navoiyning yosh ekan paytida yozgan.

Ul parivashkim, bo’libmen zoru sargardon anga  
Ishqidin olam menga hayronu men hayron anga...  
Deb boshlanadigan va  
Qilmamish jonim fido jonong’a yetmas, der emish  
Ey, Navoiy, ushbu so’z birla fido yuz jon anga

Deb tugallanadigan g’azali ham bor. Bu g’azal Navoiyning do’sti, homiysi va ustoz darajasidagi qadroni Sayyid Hasanga g’oyat maqbul ekanini shoir keyinchalik aytib o’tgan. Quyidagi g’azal yosh yigitning go’zal qizga bag’ishlab yozgan she’riy tavsifnomasi kabidir. Unda o’sma qo’yilgan qosh va o’smaning yashil rangi jonni oluvchi jallodning qilichiga qin singari tuyilmog’i aytilgan.

Vusma birla qoshin ul maxbashki rangin aylamish,  
Ko’zi jallodi qilichig’a yashil qin aylamish.

U ishqni faqat dunyoviy tuyg’u sifatida emas, balki ilohiy kamolotga eltuvchi kuch sifatida talqin qiladi. Alisher Navoiy – o’zbek va umuman turkiy adabiyot tarixida g’azal janrining beqiyos namoyandalaridan biridir. Navoiy g’azallarida oshiqlik, hijron, sabr, va ruhiy poklanish kabi mavzular chuqur falsafiy va badiiy talqin topgan. Ayniqsa, uning oshiqlik mavzusidagi she’rlari inson qalbidagi eng nozik tuyg’ularni sharhlash, ularni umumiy insoniy qadriyatlar darajasiga ko’tarish xususiyati bilan ajralib turadi .

Yoridin hech kim meningdek zor-u mahjur o’lmasun,

Jumlai olamda rasvoliqqa mashhur o’lmasun [Navoiy, 2022:386]. (Hech kim men kabi yorga zor va uning hajriga giriftor bo’lmasin butun olamda sharmandalik bilan mashhur bo’lmasin). Baytda shoir o’zini “mahjur” – ya’ni yoridan judo, dardli oshiq sifatida tasvirlaydi. Bu holatni ushunchalik chuqur his qiladiki, hech kimga bunday holatni ravo ko’rmaydi:

“Yoridin hech kim meningdek zoru mahjur o’lmasun...” misrasi orqali shoir insoniy tuyg’ular ichida eng og’iri – seviklisidan ayrilish iztirobini ilgari suradi. U o’z holatining og’irligidan shikoyat qilmaydi, aksincha, boshqalarga bu kabi dard yetmasligini so’rab duo

qiladi. Bu samimiy iltijo orqali Navoiy muhabbatning shunchaki his emas, balki ruhiy sinov, hayotiy yo‘l, hatto fojia ekanini ko‘rsatadi.

Men bo‘lay ovora to ishqimdin aylab guftugo‘y,  
Oti oning har kishi og‘zig‘a mazkur o‘lmasun.

(Men ishqim haqida har qancha aytib ovorayi sarson bo‘lsam bo‘lay, ammo uning nomi har kimning tiliga tushavermasin). Bu yerda oshiq yor haqida so‘zlay-so‘zlay o‘zining har qancha xor-u zabun bo‘lishiga rozi, ammo yorning esa hatto nomi ham shu qadar pok saqlanishi kerakki, u har kimning og‘zida zikr etilgan bo‘lmasin.

Jonima bedod-u zulmin, yo Rab, ul miqdor qil,  
Kim aning oshiqlig‘i har kimga maqdur o‘lmasun.

(Yorning jonimga jabr-u zulmini, ey Xudo, shu darajada qilginki, unga oshiq bo‘lishga har kimning ham haddi sig‘adigan bo‘lmasin). Bu yerda lirik qahramon menga yorning jabr-u zulmi shu qadarlik bo‘lsinki, uni tortishga har kimning qudrati yetmasin deb tilak bildiradi.

Men xud o‘ldum, lek har oshiqki, bordur pokboz,  
Navha tortib motamim tutmoqda ma‘zur o‘lmasun.

(Men-ku yor jabri tufayli o‘ldim, ammo har bir pokdil oshiq motamimda dod solib yig‘lasa, buni ma‘zur (kechirarli) deb bo‘lmaydi). Uning muhabbati oddiy bir tuyg‘u emas – bu, ruhiy azob, fidoyilik, hatto jismoniy o‘lim bilan tenglashtiriladi. Navoiyning lirik qahramoni ishqini shu qadar maxfiy tutadiki, hatto yor zulmi bois o‘lganida ham o‘zgalar dod faryod solib motam tutishini istamaydi, buni eshitib yor ozor topmasa edi, deya xavotirga tushadi.

Pand ila ko‘nglum uyin qilma imorat, ey rafiq,  
Bizni buzdi, hargiz ul, yo Rabki, ma‘mur o‘lmasun.

(Nasihati o‘g‘it qilib ko‘nglimni ko‘tarishga urinma, ey do‘st, zero, kimki bizning oramizni buzgan bo‘lsa, yo Rab, aslo obod bo‘lmasin). Bu yerda g‘ayir kimsalarning yor bilan shoir o‘rtasiga tushib orani buzganiga ishora bor – begona bayt g‘azal matniga ustalik bilan singdirib yuborilgan, ammo alohida olib qaraganda, ijodkor hayotiga oid biror lavhani tasvir etuvchi ishora bu yerda bo‘y ko‘rsatib turibdi.

Kechalar ul gul chekar ermish qadah, ey tong yeli,  
Voqif o‘l, holimni aytur chog‘da maxmur o‘lmasun.

(Tunlari ul gul qadah sipqorar emish, ey tonggi sabo, xabardor bo‘lgin, sen unga mening holimni atadigan chog‘ingda u mast bo‘lmasin). Baytda gulning tunda, saharga yaqin ochilishi qadah shaklini olishiga nozik ishora bor.

Yor vaslig‘a quvondim, qovdi ko‘yidin meni,  
Ey Navoiy, hech kishi davlatqa mag‘rur o‘lmasun.

(Men yorim bilan birgaman, deb quvongan edim, u esa meni ko‘yidan quvdi, ey Navoiy, hech kishi erishgan davlatiga mag‘rur bo‘lmasin ekan). Yor bilan oshiqning yaqinligi oshiq uchun tengsiz bir davlatdir, visoldan mosuvo bo‘lish esa lirik qahramon hayotining betimsol kulfati. Maqtada Navoiyning badiiy mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi: shaklan o‘zakdosh ikki so‘z yonma-yon keltiriladi, ularning biri xayriyatlik, ikkinchisi esa falokatlik. Va nihoyat, chuqur falsafiy xulosa sifatida: “Ey Navoiy, hech kishi davlatqa mag‘rur o‘lmasun.” Bu yerda “davlat” faqat boylik emas, balki omadi kelish, maqom, baxt kabilarni ham anglatadi. Shoir bu dunyodagi har qanday ne‘mat, hatto muhabbat vasliga erishish ham o‘tkinchi ekanligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy bu g‘azalida oshiqlik, dard va sabr kabi mavzularni o‘ta teran falsafiy ruh ila ifoda etadi. U o‘z dardini bayon qilayotib, uni butun insoniyatga ibrat

darajasiga ko‘taradi. She‘rning har bir misrasi nafaqat shoirning ichki holatini, balki Sharq adabiyotining mohiyatini ham aks ettiradi: bu –sofdillik, iztirob va ruhiy yuksalish yo‘lidir. Alisher Navoiy ijodi- o‘zbek adabiyotining bebaho xazinasi, milliy ma‘naviyatimizning mustahkam poydevoridir. Uning asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yosh avlodni ma‘naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Navoiy ijodini o‘rganish – o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni chuqur his etish demakdir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. A.Navoiy “Muhokamat ul -lug‘atayn”-Toshkent: Fan,2009.
2. Alisher Navoiy. Turkiy adabiyot durdonalari. 100 jildlik. J.6. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – B. 386.
3. A.Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” (to‘rt devon).-Toshkent: Fan, 1987
4. Quronov, D., Mamajonova, Z., Sheraliyeva, M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent:“Akademnashr”, 2013. – B. 393